

O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING PSIXOLOGIK
JIHATLARI

Rahmonova Dildora Mahammataliyevna

*Andijon viloyati Ulug ‘nor tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga
qarashli*

6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlarni amalga oshirishda muloqotning kommunikativ kompetentligini oshirish va yosh avlod tarbiyasida ijobiy munosabatlar hissini shakllantirish hamda kommunikativ muloqotni afzalliklari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, pedagogik, kompetent, struktura, psixologiya.

Hozirgi globallashuv davrida dunyoda ro‘y berayotgan voqealar bevosita jamiyatning onggi va tafakkuriga ta‘sir etadi. Hurmatli prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek “Yurtimizda har bir sohada texnologiya, ilm-fan, sport, zamonaviy kadrlar sohasida raqobatbardosh kadrlar bo‘lishi shart”. Shaxslararo munosabatlarning negizida kommunikativ muloqotni rivojlantirishda pedagogik va psixologik bilimlardan samarali foydalanish texnologiyasini oshirish va bu sohada xorijiy bilimlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo kommunikativ kompetensiya tushunchasi haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish kerak.

“Kommunikativ kompetensiya” atamasi fanda tilni bilish darajasining ko‘rsatkichi sifatida keng qo‘llaniladi. Bu atama ilmiy foydalanishga amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonidan kiritilgan. Hozirgi vaqtda “kommunikativ kompetensiya” atamasining yagona ta‘rifi mavjud emas, mualliflar uni turli yo‘llar bilan izohlaydilar. M. N. Vyatyutnev kommunikativ kompetensiyani "muayyan muloqot muhitida harakat qilish qobiliyatiga qarab nutq xatti-harakatlari dasturlarini amalga oshirish tanlovi sifatida; suhbatdan oldin, shuningdek, o‘zaro moslashish jarayonida suhbat davomida suxbatdoshlarda paydo bo‘ladigan mavzu, vazifalar, kommunikativ munosabatlarga qarab vaziyatlarni tasniflash qobiliyatidir" deb ta‘riflaydi.

Kasbiy kompetentlik va ularning tarkibiy qismlari bilan bog‘liq masalalar pedagog, psixolog olimlarning tadqiqot ishlarida tadqiq etilganligi aniqlandi. Jumladan, Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmun mohiyati turlicha izohlangan, jumladan, “Kompetentlik” tushunchasi to‘g‘risidagi dastlabki fikrlar Buyuk Britaniyalik psixolog olim Djon Raven tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u kompetentlikning xususiyatlari to‘plamini yagona bir tizimga birlashtiradi. MDH davlatlari olimlari S.A.Batyushkin I.V.Vlasova D.V. Mesheryakov va boshqalarning ilmiy qarashlarida oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchi va talabalarining ma‘naviy-ahloqiy, professional va individual xususiyatlarini

shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilgari suradi. Zero, kasbiy-etikaviy kompetentlik tushunchasi ostida kasbiy ahamiyatli sifatlar yig'indisi, bilim, ko'nikma, mohirlik, professional va hayotiy tajribalarni, qadriyatlar va madaniyatni qo'llagan holda, shaxslararo munosabatnilarni to'g'ri yo'lga qo'yishning integrativ jihatlar tushuniladi. Tadqiqotchi D.V.Mesheryakov kompetent moslikni asosiy mohiyatini kompetentlik va kompetentsiyalarni tashkil qiladi, bu kelgusi kasbiy professionallik faoliyati uchun mutaxassisning shaxsiy-professionallik xususiyatlarini aks ettiradi deya ta'riflaydi. V.A.Slastenin esa "kasbiy kompetentlik" tavsifini kasbiy mahorat bilan bog'lagan xolda qaraydi. Bunda u, malaka tavsifi - bu, gipotetik model bo'lib, yuqori samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisga zarur bo'lgan sifatlar haqidagi fikrlar deb hisoblaydi. L.M.Mitina kasbiy kompetentlikning psixologik modeliga kasbiy bilimlar, pedagogik yo'nalganlik, pedagogik qobiliyatlar, umumiy madaniyat va rivojlanish, pedagogik bilimlar (gnostik loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkilotchilik)ni kiritadi. Bizning nazarimizda, shaxsning kasbiy kompetentligi – har bir soha mutaxassislari tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishini emas, balki har bir tarkibiy qism bo'yicha tegishli bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning o'zlashtirilishini nazarda tutgan holda o'z sohasi bo'yicha kasbiy bilimlarini doimo boyitib borishni, axborotlarni o'rganishni, zamon talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Shaxsning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni "kasbiy faoliyatni rivojlantirishga asos bo'luvchi kommunikativ mahorat orqali takomillashtirish kerak.

Kommunikativ mahoratni tartibsiz ravishda rivojlanishi ko'pincha fe'l-atvorni avtoritar uslubiga, tez-tez konfliktli vaziyatlarning paydo bo'lishiga, shaxs va shaxs munosabatlarida keskinliklar kelib chiqishiga, muloqotga bo'lgan istagining pasayishiga, ruhiy shikastlanishga va axloqiy-ma'naviy tarbiyada o'rnini qoplab bo'lmaydigan yo'qotishlarga, aksar hollarda esa insonlarning assotsial (ijtimoiy loqaydlik) xatti-harakatlariga olib keladi. Bunday vaziyatlar yuzaga kelmasligi va sodir bo'lmasligi uchun shaxs munosabatlarda o'zini psixologik va ahloqiy jihatidan rivojlantirishi, o'z ustida doimiy ishlashi, o'zidagi muloqotchanlik darajasini oshirishi va eng muhimi o'zidagi ijobiy energiyani yo'qotmasligi lozim. Shaxs o'zidagi shaxslararo munosabat strukturasi rivojlantirish uchun avvalo o'zi sharoit yaratishi bu boradagi pedagogik va psixologik ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim. Shaxslararo munosabatlarda asosiy omil shubhasiz munosabatdir. Kishi ijtimoiy jamiyatga kirdimi albatta, muloqotga kirishadi, endi jamiyat normalarini qabul qilishi va shu asosida o'zidagi ijobiy sifatlarini shakllantirishi zarurdir. Shaxsdagi muloqotchanlik hissi yuqori bo'lishi undagi ekstrovert sifatlar rivojlanishiga yordam beradi va albatta, jamiyatdagi mavqei uning muloqotchanlik darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun shaxs doimo shaxslararo muloqot o'rnatishga intilishi va harakat qilishi zarurdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 146 б. (Mirziyoyev Sh.M. We will continue our path of national development with determination and raise it to a new level. - Т.: Uzbekistan, 2017. – P. 146).
2. Гойхман О.Я., Надеина Т.М. Речевая коммуникация: учебник. - М.: ИНФРА-М, 2001 167 б. (Goikhman O. Ya., nadeina T. M. Speech communication: textbook. - М.: INFRA-M, 2001. –P. 167 b).
3. Шибутани Т. Социальная психология.- Ростов н/Д:Феникс, 1999. 342 б. (Shibutani T. Social psychology.- Rostov n/A:Phoenix, 1999. –P. 342).
4. Зарецкая Е.Н. Риторика: теория и практика речевой коммуникации. - М.: Дело, 2001 й 287 б. (Zaretskaya E. N. Rhetoric: theory and practice of speech communication. - Moscow: Delo, 2001, -P. 287)
5. Nizaeva, L.F. Kommunikativ kompetentsiya: mohiyati va tarkibiy qismlari / L.F. Nizaeva. - Matn: bevosita // Yosh olim. - 2016. - No 28 (132). - S. 933-935. — URL: <https://moluch.ru/archive/132/37125/> (kirish sanasi: 07.02.2022).
6. Шаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология): учебник для студентов вузов. – М.: Гардарики, 2007. – 349 с.
7. Ғозиев Э. Ғ. Педагогик психология. –Тошкент: Университет, 2014.-208 бет.
8. Бодров В. А. Информационный стресс. М, ПЭР СЭ, 2000.
9. Бреслав Г. М. Психология эмоций. М., 2004.
10. Вилюнас В.К. Психология эмоций, М., 2005.
11. Водопьянова Н.Е., Старченкова Е.С. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2008.
12. Выготский Л. С. Собр.соч., 2-том М., 1982. 34. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. М., 2008.